

TARBIYA DAPSLAPIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJTIMOYIY VA HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Hakimova Nargiza Supxonovna*Buxoro davlat universiteti dotsenti, (PhD)*

Annotatsiya. *Maqolada tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari, ushbu ko'nikmalar yosh avlodning yetuk inson sifatida ulg'ayishi jamiyat rivojini ta'minlovchi omillardan biri ekanligi, o'quvchining kichik maktab yoshidan boshlab ijtimoiy faollashuvida, o'z o'rnini topishida, o'z-o'zini rivojlantirib borishida ham etakchi o'rin tutishi, o'quvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish unga jamiyatda o'z o'rnini topishda yordam berishi, tarbiya darslarida ma'naviy-axloqiy madaniyatlilik hamda mafkuraviy immunitetga ega bo'lish kompetensiyalarining sinflar kesimida tarkib toptirish darajalari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, ijtimoiy va huquqiy kompetensiya, yetuk inson, ijtimoiy faollashuv, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy fazilatlar, ma'naviy-axloqiy madaniyatlilik, mafkuraviy immunitet, pedagogik shart-sharoit.*

Аннотация. *В статье рассматриваются возможности формирования социально-правовых компетенций младших школьников на уроках воспитания, утверждается, что эти навыки являются одним из факторов, обеспечивающих развитие общества, что взросление подрастающего поколения как зрелой личности также играет ведущую роль в социальной активизации ученика с младшего школьного возраста, в его самореализации, самосовершенствовании, развитие личностных качеств ученика помогает ему найти свое место в обществе. дает, на уроках воспитания речь идет об уровне содержания компетенций духовно-нравственной культурности и идеологического иммунитета в разрезе классов.*

Ключевые слова: *воспитание, социально-правовая компетентность, зрелая личность, социальная активизация, саморазвитие, личностные качества, духовно-нравственная культурность, идеологический иммунитет, педагогическая обусловленность.*

Annotation. *In the article, the opportunities for the formation of social and legal competencies of Primary School students in educational classes, the fact that these skills are one of the factors that ensure the development of society for the younger generation as a mature person, the student also occupies a leading place in social activation, finding his place, self-development, the development of personal qualities, the lessons of upbringing talk about the levels of content in the cross-section of classes of competencies of spiritual-moral culturality and ideological immunity.*

Keywords: *upbringing, social and legal competence, mature person, social activation, Self-Development, personal qualities, spiritual and moral culturality, ideological immunity, pedagogical conditions.*

Shaxs hayoti bevosita jamiyatda, unda istiqomat qiladigan kishilar orasida kechadi. Jamiyat a'zolari o'rtasidagi shaxslararo aloqalarning samarali kechishi bevosita shaxsning ijtimoiy munosabatlar mazmuniga bogliq. Ijtimoiy munosabatlar mazmuni esa, o'z navbatida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning aniqlanganligi, jamiyat tomonidan qay darajada tan olinganligi hamda amaliy faoliyatda ularga rioya etilayotganligi bilan belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishda alohida o'rin tutadi. Maktabda pedagogik-psixologik, shuningdek, umumiy ijtimoiy bilimlarni maxsus o'zlashtirgan mutaxassislar - o'qituvchilarning faoliyat yuritishlari o'quvchilar tomonidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini to'g'ri anglash, ularning ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, huquqiy ahamiyatini tushunish, shuningdek, mazkur me'yorlarga kundalik faoliyatda rioya etish ko'nikmalarining izchil o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilari ijtimoiy va huquqiy me'yorlar, ularning mazmuni to'g'risidagi dastlabki eng oddiy tushunchalarni oila hamda umumiy o'rta ta'lim maktabida o'zlashtiradilar. Biroq, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilar hayotida o'ziga xos davr sanaladi. Bola o'zining jismoniy va ruhiy kamolotiga ko'ra ta'lim olishga to'la tayyor bo'ladi. Asosiy hayot tarzi sifatida o'yin faoliyati o'rnini o'qish faoliyati egallaydi. O'qish faoliyati o'quvchilarning ruhiy jihatdan yanada takomillashishlariga, xarakter xususiyatlarining shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Bilim olish va atrof-muhitni o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Mazkur hodisalarning barchasi o'quvchilarga ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini yetarli darajada anglashlariga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashlarida ham obrazlilik ustun bo'lganligi sababli ular o'qituvchi tomonidan berilayotgan tushunchalarning ma'nosidan ko'ra obrazi (shakli yoki tasviri)ga e'tiborni qaratadilar. Bu esa o'z-o'zidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rgazmali vositalar yordamida yetkazish berish zarurligini anglatadi. O'qituvchi nutqining obrazliliigi, hissiyotga boyligi va ma'lumotlarning qiziqarli ekanligi o'quvchilarning bilish faoliyatini faol tashkil etishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari oilada, ta'lim muassasasida hamda o'zlari mansub bo'lgan mikro guruhlarda ota-onalar, oilaning barcha a'zolari, sinfdoshlari va tengdoshlari bilan tashkil etadigan munosabatlarda muayyan koidalarga amal qilishlari lozim. O'quvchilarning ijtimoiy subyektlar bilan munosabatlarda aynan qanday xulq-atvor qoidalariga amal qilishlari zarurligini anglash uchun ijtimoiy - huquqiy me'yorlarning turlaridan xabardor bo'lish talab qilinadi.

Mavjud manbalarda ijtimoiy - huquqiy me'yorlar quyidagi turlar bo'yicha guruhlanadi:

- 1) axloqiy me'yorlar;
- 2) jamoat birlashmalarining me'yorlari;
- 3) milliy urf-odatlar;
- 4) turli xalqlarga xos odatlari;
- 5) an'ana me'yorlar;
- 6) siyosiy faoliyat me'yorlari;
- 7) huquqiy me'yorlar;
- 8) diniy me'yorlar.

Ma'lumki, yosh avlodning yetuk inson sifatida ulg'ayishi jamiyat rivojini ta'minlovchi omillardan hisoblanib, uning shaxs sifatida ijtimoiy faollashuvida, o'z o'rnini topishida, o'z-o'zini rivojlantirib borishida ham etakchi o'rin tutadi. Aynan, ta'lim-tarbiya jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy - huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish asosida ularning ijtimoiy faolligini ta'minlash quyidagi ikki jihatga ko'ra muhim hisoblanadi. Ya'ni, o'quvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish orqali unga jamiyatda o'z o'rnini topishda yordam beradi hamda egallagan bilimi, hayotiy ko'nikmasi, aql-idroki, imkoniyati, iqtidori jamiyat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilishiga yo'naltiriladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijtimoiy faolligi, ularda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki doimiy ravishda amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. O'quvchi yoshlarga nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda ijtimoiy faollik ko'nikma va malakalarini hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi bilan dolzarblik kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilari ijtimoiy va huquqiy me'yorlar, ularning mazmuni to'g'risidagi dastlabki eng oddiy tushunchalarni oila hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida o'zlashtiradilar. Biroq, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilar hayotida o'ziga xos davr sanaladi. Bola o'zining jismoniy va ruhiy kamolotiga ko'ra ta'lim olishga to'la tayyor bo'ladi. Asosiy hayot tarzi sifatida o'yin faoliyati o'rnini o'qish faoliyati egallaydi. O'qish faoliyati o'quvchilarning ruhiy jihatdan yanada takomillashishlariga, xarakter xususiyatlarining shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Bilim olish va atrof-muhitni o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Mazkur hodisalarning barchasi o'quvchilarga ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini yetarli darajada anglashlariga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashlarida ham obrazlilik ustun bo'lganligi sababli ular o'qituvchi tomonidan berilayotgan tushunchalarning ma'nosidan ko'ra obrazi (shakli yoki tasviri)ga e'tiborni qaratadilar. Bu esa o'z-o'zidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rgazmali vositalar yordamida yetkazish berish zarurligini anglatadi. O'qituvchi nutqining obrazliliigi, hissiyotga boyligi va

ma'lumotlarning qiziqarli ekanligi o'quvchilarning bilish faoliyatini faol tashkil etishga xizmat qiladi.

O'rganilgan manbalarda o'quv jarayonlari davomida darsliklar asosida o'quvchilarda shakllantiriladigan ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarning quyidagi turlari mavjud:

- 1) axloqiy kompetensiyalar;
- 2) o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalari;
- 3) shaxslararo munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalari;
- 4) axborotlar bilan ishlash kompetensiyalari;

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan ma'lum funksiyalarni bajarish (masalan, ovqatlanish, jamoa transportidan foydalanish, ko'ngilli dam olishni tashkil etishga xizmat qiladigan madaniy muassasalar (jumladan, muzeylar, kinoteatr, konsert zallari va sirk kabilarga) tashrif buyurish davri)da o'zini tuta olish, boshqarish va xatti-harakatlarini baholashga o'rgatadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni milliy diniy e'tiqod ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Hadislar, ularning ma'naviy-axloqiy mohiyatini anglash orqali o'quvchilar atrof-muhit va tabiatga ijobiy munosabatda bo'lish, tabiiy-moddiy ne'matlarni asrash, ularning mavjudligi uchun minnatdor bo'lish, ijtimoiy xulq-atvor va xatti-harakatlarni savob va gunoh mezonlari asosida baholash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

“Tarbiya” fani integrativ o'quv dasturiga asoslangan bo'lib, uning mazmunida boshlang'ich sinf o'quvchilariga kichik maktab yoshidan boshlab ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga oid boshlang'ich tushuncha va bilimlar singdirilgan. Har bir sinf uchun o'quv dasturi so'ngida keltiriladigan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda ham DTSning majburiy minimal ta'lim mazmunida belgilangan kompetensiyalar asos qilib olinadi. O'quv dasturi asosidagi darsliklar mazmunida, birinchi navbatda, shu kompetensiyalarga erishish maqsad qilib qo'yiladi. O'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini tashkil etishda har bir o'quvchi kompetensiyalarda belgilangan talablarga erishishiga imkon yaratadi, har bir darsni o'tishda shu talablarga alohida e'tibor beradi.

Tarbiya fani asosida quyidagi kompetensiyalar shakllantiriladi:

Ma'naviy-axloqiy madaniyatlik kompetensiyasi: odob-axloq (kiyinish, muomala, muloqot, jamoat joylarida o'zini tutish) madaniyatiga ega bo'lishi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash va hurmat qilish, oila, jamiyat, Vatan oldidagi burch hamda mas'uliyatni anglashi va ularga rioya qilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy-madaniy an'analar, urfodatlar, marosimlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, jamoatchilik ishlarida faol bo'lishi.

Mafkuraviy immunitetga ega bo'lish kompetensiyasi: yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlay olishi, ularga nisbatan fikrini bayon eta olishi; yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildira olishi, ilmlilik insonning yuksak ziynati ekanini anglay boshlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Tarbiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida dars jarayonida zamonaviy yondashuvlarga asoslanib, o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar asosida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni tarkib toptirishga erishib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda Tarbiya darslarini kuzatish va tahlil qilish orqali o'quvchilarning umumiy tayyorgarligi, bilim olishdagi faoliyati, o'quv faniga bo'lgan qiziqishi, diqqat bilan ishlashi, matn, xarita, jadval, asboblarni bilan mustaqil ishlay bilishi, o'qituvchiga bo'lgan munosabati aniqlanadi.

Tarbiya fanidan 1-sinf bitiruvchisiga qo'yilgan malaka talablari:

1. Orzularini aniqlay oladi
2. Ma'suliyatni anglaydi
3. Hamkorlik qila oladi
4. Qiziquvchanligi ortib boradi
5. Jamoasida va oilasida o'rnatilgan odob me'yorlariga rioya qiladi.

Tarbiya fanidan 2-sinf bitiruvchisiga qo'yilgan malaka talablari:

1. O'z oldiga maqsad qo'ya oladi
2. Ma'suliyatni anglaydi
3. Muomala odobiga rioya qiladi
4. Tirishqoqlikni namoyon qiladi
5. Takliflarini ifodalay oladi
6. Yaxshi odatlarga amal qiladi.

Tarbiya fanidan 3-sinf bitiruvchisiga qo'yilgan malaka talablari:

1. Maqsad va orzu - umidlarini amalga oshirishga harakat qiladi
2. Ma'suliyatni anglaydi
3. Ahillik, kechirimlilik, rahm-shafqatli kabi sifatlarga ega bo'lish
4. O'z fikrini bildira oladi
5. Bag'rikenglik, sabr-qanoat, shukronalikni namoyon qiladi
6. Yangilikka intiladi
7. Jamoadagi o'z o'rnini his qiladi.

Tarbiya fanidan 4-sinf bitiruvchisiga qo'yilgan malaka talablari:

1. Hayotiy maqsadlari shakllanadi
2. To'g'ri harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi va ularga amal qiladi
3. Jarayonlarga tanqidiy munosabat bildira oladi
4. Tashabbuskorligini namoyon qiladi
5. Ma'suliyatini anglaydi
6. Tejamkor (tabiiy va moddiy resurslarni avaylaydi) bo'ladi
7. Sog'lom fikrga ega bo'ladi
8. Etika qoidalari haqida tushunchaga ega bo'ladi.

Yuqoridagi malaka talablari tahlili asosida Tarbiya fanidan o'quvchilarda shakllantiriladigan ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalar quyidagicha takomillashib boradi:

1-sinfda: Jamoasida va oilasida oʻrnatilgan odob meʼyorlariga rioya qiladi.

2-sinfda: Muomala odobi va yaxshi odatlarga amal qiladi.

3-sinfda: Maʼsuliyatni anglaydi, jamoadagi oʻz oʻrnini his qiladi.

4-sinfda: Toʻgʻri harakatlarni qoʻllab-quvvatlaydi va ularga amal qiladi, sogʻlom fikrga ega boʻladi, etika qoidalari haqida tushunchaga ega boʻladi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki, ijtimoiy va huquqiy meʼyorlar boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ijtimoiy xulq-atvor, muomala, munosabat va faoliyat asoslari toʻgʻrisidagi tushunchalarni hosil boʻlishini tahminlaydi. Ularning mazmunini oʻzlashtirish natijasida oʻquvchilar jamiyatda qanday yashash kerakligi, atrofdagilar bilan munosabatni qanday tashkil etish lozimligi hamda tabiatga, ijtimoiy subyektlarga, voqea-hodisalarga nisbatan ijobiy yondashish zarurligini tushunib boradilar. Shu sababli boshlangʻich sinflarda oʻquvchilarni ijtimoiy va huquqiy meʼyorlar mohiyati bilan izchil, tizimli va uzluksiz tanishtirib borishga alohida eʼtibor qaratish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://www.glossary.ru/cgi-bin/gl>.
2. N.Hakimova //Boshlangʻich sinf oʻquvchilari hayotida ijtimoiy-huquqiy meʼyorlarning oʻrni //“Pedagogik mahorat” jurnali. 2022-yil 5-son. B-98-101
3. H.Ҳақимова //Бошланғич синф тарбия дарсларида ўқувчиларда ижтимоий-ҳуқуқий компетенцияларини шакллантириш тамойиллари// БухДУ илмий ахборотномаси №6,2022.В-146-149.
4. N.Hakimova //Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini maʼnaviy- axloqiy tarbiyalashda innovatsion taʼlim texnologiyalardan foydalanish//Uslubiy qoʻllanma 2018.07.07. b-82.
5. Tarbiya darsliklari (1-4-sinf) T. 2022y